

Date: 29th April-2026

MAQSUD SHAYXZODA SAXIYLIK VA INSON QADRI

Amirxonov Ibrohim Abdurahmon o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya: XX asr o'zbek adabiyotining ulkan siymosi Maqsud Shayxzoda shaxsiyatidagi saxiylik va inson qadri masalalari tahlil qilinadi. Adibning nafaqat ijodiy merosi, balki uning insoniy qiyofasi, xususan, Moskvada tahsil olayotgan shogirdlariga ko'rsatgan g'amxo'rliqi, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishdagi olijanoblighi Naim Karimov xotiralari asosida yoritiladi. Maqolada saxiylik tushunchasi shunchaki moddiy yordam emas, balki insoniylik faziliyatlar ustivor ligi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, saxiylik, inson qadri, odamiylik, Naim Karimov, talaba hayoti, insoniy faziliyatlar, o'zbek adabiyoti.

Abstract: This article analyzes the issues of generosity and human dignity in the personality of Maqsud Shayxzoda, a great figure of 20th-century Uzbek literature. Based on the memoirs of Naim Karimov, it highlights not only the writer's creative heritage but also his human persona—specifically, his care for students studying in Moscow and his nobility in meeting their material and spiritual needs. The article presents information that the concept of generosity is not merely material aid, but also the priority of humanitarian virtues.

Keywords: Maqsud Shayxzoda, generosity, human dignity, humanity, Naim Karimov, student life, human virtues, Uzbek literature.

Maqsud Shayxzoda shaxsi o'zbek madaniyati va adabiyoti tarixida shunday bir cho'qqiki, unga har gal nazar tashlaganimizda yangi-yangi qirralar namoyon bo'laveradi. Men, transport universiteti talabasi sifatida, bu buyuk siymoning hayot yo'lini o'rganar ekanman, uning saxiyliqi va inson qadriga bo'lgan cheksiz hurmatini jamiyatimizning ma'naviy poydevori deb bilaman. Naim Karimov ta'kidlaganidek, dunyoning bir kuni haqida gap ketganda, Shayxzoda uchun "o'lik raqamlar" emas, balki "tirik odam"ning qalbi, uning bir soatlik mashaqqati va shodligi birlamchi ahamiyatga ega edi. Bu falsafa adibning butun umri davomida uning faoliyatini boshqarib turuvchi asosiy mezon bo'lib kelgan va biz ham adibni hayotini o'rganib yanada bu ison shoir, tarjimon, insonlar uchun ham o'rnak.

Shayxzodaning saxiyliqi — bu shunchaki moddiy yordam ko'rsatish emas, balki inson ruhini yuksaltirishga qaratilgan ulkan ma'naviy jarayondir. 1960-yillarda adib Moskvaga, sobiq ittifoq poytaxtiga tez-tez safar qilib turgan. Bu safarlar uning uchun shunchaki ilmiy anjumanlar yoki ijodiy uchrashuvlar emas, balki uzoqda tahsil olayotgan shogirdlarining holidan xabar olish, ularga ota bo'lib dalda berish imkoniyati edi. Adabiyot institutida tahsil olayotgan Aziz Abdurazzoq va Sayyor kabi talabalar o'sha yillarda "yarim och, yarim yalang'och" holatda zahmat chekib o'qishgan. Shayxzoda buni ko'rib, ularning



Date: 29th April-2026

"puchayib qolgan qorinlarini ovqat bilan, shamol guvullab turgan cho'ntaklarini pul bilan" to'ldirar edi. U buni shunday bir samimiylik bilan qilardiki, talabalar ustozning bag'rida dunyo qadar kenglikni his qilishardi. Bu yerda biz Shayxzodaning ijtimoiy mas'uliyat muhandisligini ko'ramiz: u jamiyatning intellektual kelajagi bo'lgan yoshlarni asrab qolish uchun bor kuchini safarbar etgan.

Adibning saxiyligi uning restoranidagi gurunlarida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bir piyola ozarbayjoncha no'xat sho'rvasi ustida kechgan bu suhbatlar shunchaki mehmondorchilik emas, balki haqiqiy ma'rifat akademiyasi edi. Shayxzoda rang-barang bilimlar sohibi sifatida Iskandar Zulqarnayn, Amir Temur, Beruniy va Ulug'bek kabi buyuk siymolar haqida so'zlar ekan, yoshlarning dunyoqarashini koinot qadar kengaytirardi. Uning xotirasidagi ma'lumotlar hajmi bugungi eng zamonaviy "ma'lumotlar bazasi"dan ham kengroq edi. U o'zining bu boy xazinasini hech qanday qizg'anchliqsiz shogirdlariga ulashardi. Shu sababli ham, boshqa millat vakillari bo'lgan talabalar ham uni "Ota" deb e'zozlashgan. Bu munosabatlar inson qadri hamma narsadan ustun ekanligining amaliy isbotidir.

Shayxzoda insonning nafaqat moddiy, balki estetik ehtiyojlarini ham doimo nazorat qilgan. Uning tildagi soflik va ismlardagi go'zallik uchun qilgan kurashlari uning ma'naviy saxiyligining bir qismidir. Masalan, ozarbayjonlik shoir Nabi Boboyevning taxallusini "Nabi Xazriy"ga o'zgartirishi, unga "Isming shoirona bo'lmasa, qanday shoirsan?" deb yo'l ko'rsatishi uning san'atga bo'lgan yuksak munosabatidan dalolat beradi. Shayxzoda uchun inson qadri uning ismi-sharifidan tortib, kiyinish madaniyatigacha bo'lgan barcha detallarda namoyon bo'lishi lozim edi. U yosh ijodkorlarni nafaqat professional shoir, balki yuqori didli, madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashni o'zining muqaddas burchi deb bilgan..

Adibning shaxsiyatidagi bu g'oyat saxiy xislat uning o'ziga xos dunyoqarashidan, ya'ni "Inson — koinot gultoji" degan falsafasidan oziqlangan. U o'zining mashhur "Mirzo Ulug'bek" va "Jaloliddin Manguberdi" kabi asarlarida ham inson irodasi va uning ma'naviy qudratini ulug'lagan. Shayxzoda uchun inson — bu shunchaki jismoniy mavjudot emas, balki ulkan tafakkur va hissiyotlar dunyosidir. U o'zining kunduzlarini insonlarga, ularning dardlariga darmon bo'lishga va murabbiylikka bag'ishlab, tunlarini ijodga fido qilgan edi. Bu uning o'z oromini o'zgalar shodligi uchun qurbon qilishi — saxiylikning eng yuqori nuqtasidir. Uning uyi, ya'ni "Shayxzoda choyxonasi" barcha muhtojlar va ilm talabgorlari uchun ochiq bo'lgan. U yerda tansiq taomlardan ko'ra, ko'proq ma'naviy ozuqa, samimiyat va mehr ulashilgan.

Shayxzodaning saxiyligi uning qatag'on yillari va surgun davridagi matonatida ham yaqqol ko'rinadi. O'sha og'ir yillarda ko'plab insonlar o'z jonini asrash haqida qayg'urgan bo'lsa, Shayxzoda o'zgalarga yordam berishni, ularni ruhini ko'tarishni kanda qilmagan. Surgundan qaytgach, u o'ziga nisbatan xiyonat qilganlarga adovat saqlamasdan, aksincha, ularni kechira olgani uning ma'naviy saxiyligi naqadar ulkanligidan dalolatdir. Bu xislatni men ruhiy chidamlilik undaydi deb atagan bo'lardim. Shayxzoda har qanday bosim ostida ham o'zining insoniy fazilatlarini, saxiylik va mehr-shafqatini saqlab qola oldi. U inson



Date: 29th April-2026

qadri deyilganda, birinchi navbatda, uning xatolarini kechira olish va unga yangi imkoniyat berishni tushungan.

Bugungi kunda, biz talabalar uchun Shayxzoda maktabi har qachongidan ham zarurroq. Texnika va texnologiyalar asrida insoniy munosabatlar biroz sovub borayotgandek tuyulgan bir paytda, Shayxzodaning o'sha bir qiyin yo'l ustidagi suhbatlari, shogirdlarini "Otang keldi" deb yo'qlab borishi biz uchun haqiqiy namunadir. Uning saxiyligi — bu o'zbek milliy mentalitetining eng sara namunasi. Shayxzoda qurgan bu ma'naviy ma marifiy ishlar bo'ylab harakatlanar ekanmiz, biz nafaqat o'tmishimizni anglaymiz, balki yuksak kelajak sari ishonch bilan qadam tashlaymiz. Inson qadri Shayxzoda uchun shunchaki inson qadri birinchi o'rinda turar edi, balki amaliy hayotiy harakat edi. U o'z mehnati va saxovati bilan o'zbek tilining boyligini, xalqimizning mehmondo'stligini va ma'naviy qudratini butun dunyoga ko'rsatib berdi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Maqsud Shayxzoda shaxsiyatidagi saxiylilik va inson qadri tushunchalari uzviy bog'liqdir. U insonni shunchalik sevardiki, uning barcha kamchiliklarini ham mehr bilan tuzatishga, uni boyitishga harakat qilardi. Shayxzoda qoldirgan meros — bu faqat kitoblar emas, balki sadoqatli shogirdlar, minnatdor kitobxonlar va insoniylik maktabidir. Biz, yosh avlod, Shayxzoda kabi ulug' ustozlarning hayotiy tajribasidan saboq olib, jamiyatimizda inson qadrini yanada yuksaltirishimiz lozim. Zero, Shayxzoda qurgan ma'naviy ko'priklar bizni hamisha ezgulikka, go'zallikka va komillikka chorlayveradi. Uning saxiyligi o'zbek adabiyoti osmonida so'nmas quyosh bo'lib, kelajak yo'llarimizni yoritib turaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov Naim. Maqsud Shayxzoda (Ma'rifiy-biografik roman). – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
2. Shayxzoda M. Tanlangan asarlar. I-VI jildlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1969-1974.
3. Qahhorova K. Chorak asr hamnafas. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987.
4. Sayyor. "Ustozdan dars olganlar" (Xotiralar to'plami). – Toshkent, 1995.
5. Aziz Abdurazzoq. "Olovli yurak" (Ustoz haqida xotiralar). – Toshkent, 1982.
6. Oripov A. "Ustozlar xotirasi — muqaddas". – Toshkent, 2015.
7. Vohidov E. "So'z latofati va inson qalbi". – Toshkent, 2010.
8. Shayxzoda M. "G'azal mulking sultoni" (Navoiy haqida maqolalar to'plami). – Toshkent, 1991.

